

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI ICHIDAN O‘ZLASHTIRISHI PAST BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Pardayev Orzumand

*Samarqand viloyati Urgut tumani
103-maktabning boshlang‘ich ta‘lim
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish jarayoni, darsliklarda berilgan bilimlarni berishda o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta‘minlash, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish, bilimlarni egallashida yuzaga keladigan muammolarni yechish qo‘llaniladigan metodikalar va bu orqali erishilgan yaxshi natijalar kabi masalalar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, ta‘lim, tarbiya, o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, interfaol yondashuv, faollikni oshirish.*

Zamonaviy ta‘limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta‘lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta‘lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Shu yerda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mustaqil o‘ylay oladigan tafakkur yuritib to‘g‘ri ma‘qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak deb ta‘kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o‘z nutqlaridi. Darhaqiqat, yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz. Eng avvalo, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bilim berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlar asosida ayta olamizki, boshlang‘ich ta‘lim davrida o‘quvchida o‘yin faoliyatining o‘rnini o‘qish faoliyati egallaydi. O‘qib-o‘rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo‘lib qoladi. O‘qish jarayonida u darsliklarini va o‘quv qurollarini saranjom saqlash, o‘z vaqtida o‘rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. O‘quvchi tobora mas‘uliyatli bo‘lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o‘stiradi, aqliy rivojlanishini ta‘minlaydi, sezgilari va irodasining o‘sishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi xotirasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. O‘quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta‘lim jarayonida o‘quv materialining ko‘p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o‘z-o‘zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o‘quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri o‘sadi. 7-8 yoshli bolalarda ham tafakkur hali konkret xarakterda bo‘ladi. Ular o‘zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko‘rinishlari shakllana boshlaydi. Uchinchi va to‘rtinchi sinflarda o‘quvchilar ilmiy bilimlarga oid ayrim tushunchalarni ham o‘zlashtirib oladilar. Bu davrda o‘quvchilarning ruhiyatida hissiy kechinmalar yuz beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida biror fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta‘lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar. Dars vaqtida o‘quvchi faoliyatiga qo‘yilgan yuqori baho o‘quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni tug‘diradi. Ammo o‘quvchilar orasida fanlardan orqada qolish, o‘zlashtirishi past baholanadiganlari ham uchrab turadi. Ushbu o‘quvchilar bilan har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi alohida ishlarni olib borishi va ulardagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, imkon qadar bunga yechim topishi zarur. Shunday ekan boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi har tomonlama yetuk, o‘tkir diplomat, o‘z kasbini ustasi, intellektual salohiyatga ega shaxs bo‘lishi shart.

Har bir boshlang‘ich sinfda dars berish jarayonida fanlarni o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarga duch kelimiz. Bu o‘quvchilar bilan ishlash o‘qituvchidan yuqori malaka talab qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi yangi metodikalari qo‘llashi, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirishi va bu orqali past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning boshqa tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta‘minlash lozim. Shundagina har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olgan va har bir o‘quvchi bilan individual ishlash jarayonini amalga oshiradi olgan hisoblanadi. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida ta‘limga uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg‘otish lozim.

Mustaqil ish turlari, avvalo, o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta‘lim maqsadiga yo‘naltirilgan va davomiy bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e‘tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to‘la “eslab qolib” bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e‘tibor beriladi. O‘quvchilarning topshiriqlarni tez, to‘g‘ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo‘naltiruvchi savollar berib, tayanch so‘zlar tavsiya etish foydalidir.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida bo‘sh o‘zlashtirishni vujudga keltiruvchi omillar, o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish ta‘lim jarayonida o‘quvchi o‘zlashtirmasligining oldini olishga yo‘naltirilgan chora – tadbirlar tizimini ishlab

chiqish imkonini beradi. bo‘sh o‘zlashtirishning oldini olish bo‘yicha tadbirlar tizimi har bir o‘quvchi real o‘quv imkoniyatlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, ya’ni shaxsning intellektual, irodaviy, hissiy sohalarini bir vaqtda rivojlantirishga, uning ta’lim va tarbiyasini ta’minlash, o‘qishga va jamoaga ijobiy munosabatini rivojlantirish, uning ishga qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘quvchi real o‘quv imkoniyatlaridan birining shakllanishi muhimligini yetarlicha baholamaslik, bu tizimning yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada bo‘sh o‘zlashtirishning muvaffaqiyatli oldini olishga olib kelmaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni zo‘riqish va turli psixologik ta’sirlardan asrash, qiziqarli o‘yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni ziyraklik va chaqqonlikka hamda fikrini to‘g‘ri va aniq ifoda etishga undovchi o‘yinlardan foydalanishi samarali natija beradi. Masalan, “G‘oyib bo‘lganini top” o‘yinida turli geometrik shakllar yozuv taxtasi yoki magnitli doskaga tartibsiz joylashtiriladi. O‘quvchilar shakllarni ko‘rib bo‘lgach, o‘qituvchi “Tun”, deydi. Bolalar ko‘zini yumadi. O‘qituvchi shakllardan bir nechtasini olib, yashiradi va “Kun”, deydi. O‘quvchilar ko‘zini ochib, qaysi shakllar g‘oyib bo‘lganini aytishi kerak.

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o‘qituvchidan alohida sabot va mas’uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug‘ullanish uchun, avvalo, yakkama-yakka suhbat o‘tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o‘zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o‘quvchilarga qiynalayotgan fanidan alohida mashg‘ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o‘quvchilardagi ijobiy o‘zgarishlar rag‘batlantirilishi muhim [9]. Bo‘sh o‘zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin. O‘qituvchi dars o‘tishda boshqa ko‘plab usullardan ham foydalanishi lozim. Eng muhimi, ular samara berishi.

O‘quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o‘quvchilarni ishga. ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o‘quvchilarning bilimlarini ularning dastlabki tushuncha, tasavvur va ko‘nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak [10]. Shuningdek, bu materiallar ko‘p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ularning har biri o‘ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘rganish mashqlarining ana shunday yoiga qo‘yilishi o‘quvchilar ongida yangi bog‘lanishlar hosil bo‘lishiga va shunga ko‘ra materialning yaxshiroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar davlat ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim masala hisoblanadi. Chunki o‘sha o‘quvchi an’anaviy darslarda, yoki har doim jamoa bo‘lib o‘tkaziladigan darslarda ta’limni o‘ziga qabul qila olmagan. Shunday ekan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan dastlab barcha metodikalari individual qo‘llab, keyin ularni jamoaviy metodikalar va doimgidek ta’lim-tarbiyada jarayoniga jalb qilish kerak.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinflarda past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta’lim-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yangi metodikalar fan foydalanish bilan bir qatorda ta’lim texnologiyalarini ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog‘lab borishimiz kerak deb o‘ylayman. Biz shu orqali pedagogik faoliyatga va o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga to‘g‘ri yondashgan bo‘lamiz va passiv o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarini o‘z o‘rnida shakllantirishga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Karamatova S.D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 6, 82-86.
3. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo‘lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.950-955.
4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida// “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.956-962.